



SOLIQ MA'MURIYATCHILIGIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA MAVJUD SALBIY FARQ SUMMALARINI QOPLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING TA'SIRI TAHLILI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

PhD Turdaliyev Eldor Sho`xratjon o'g'li

ORCID: 0009-0003-5441-3118

eldor.turdaliyev@soliq.uz

Annotatsiya: Maqolada qo'shilgan qiymat solig'i bazasini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, uni aniqlashdagi ayrim murakkabliklar va muammolar tahlil etilgan hamda soliq bazasining shakllantirishni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash yuzasidan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarni qo'llash natijalarga asoslanib tegishli xulosalar shakllantirilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qo'shigan qiymat, qo'shilgan qiymat solig'i bazasi, soliq, budjet siyosati, budjet, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, soliq yuki, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish. Yangi soliq konsepsiyasi natijasida soliq tizimi ancha takomillashtirilgan bo'lsa-da, amaliyotda ularni qo'llash jarayonida ayrim muammolar, aniqlik yetishmasligi va soliq organlari mutaxassislari hamda tadbirkorlar tomonidan ba'zi qonuniy qoidalarga qarshi keluvchi yondashuvlar kuzatilmoqda. Ba'zi holatlarda esa soliq tizimining ayrim tamoyillarining buzilishi hollari ham sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, ko'p munozaralarga sabab bo'layotgan qo'shilgan qiymat solig'i shular jumlasidandir. Ushbu soliqni



qo'llashdagi murakkabliklar va yechimlar bo'yicha soliq bazasini hisoblashda tahlil qilish va hal etilishi zarur bo'lgan muammolar mavjud bo'lib, bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda soliq sohasini huquqiy asoslari mukammal qilib yaratish maqsadida doimiy ravishda o'zgartirishlar kiritilib, yangi qonun xujjatlari amaliyotga joriy etiladi. Dastlab, 2018-yil 29-iyunda "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon¹i imzolandi va farmon bilan soliq qonunchiligiga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'ini keng tartibda joriy etish hamda qo'shilgan qiymat solig'i zanjirini uzluksizligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining soliq sodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan soliq kodekiga o'zgartirishlar kiritilib, qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq (manfiy tafovut)ini qoplab bo'yicha barcha korxonalarga huquq berildi. Bu o'z navbatida barcha korxonalar uchun juda katta imkoniyatni yaratdi. Ushbu o'zgarishning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-sonli qarori imzolandi. Dastlab qaror 2020-yilning oxiriga qadar amal qildi va qarorda yil davomida ko'plab kamchiliklar va noaniqliklar kuzatilganligi bois, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan Nizomning 25-bandiga o'zgartirish kiritildi. Ushbu bandda salbiy farq summasini rad qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda nazarda tutilishi lozim bo'lgan xolatlar soni kengaytirildi. Bunga sabab salbiy farq summasini qaytarib olishda ko'plab korxonalar tomonidan soxta tadbirkorlik sub'ektlari tuzib, budjet mablag'larini qaytarib olishga bo'lgan urinishlar ko'payganligi sabab bo'ldi. Qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy farq summasi qaytarish bo'yicha barcha xujjatlar dastlab qog'oz shaklida yuritilib, rasmiylashtirilgan xujjatlar Moliya vazirligi G'aznachiligiga pochta orqali yuborilgan. Bugunga kelib, 489-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.06.2018-yildagi PF-5468-son



sonli qaror kuchga kirgandan so'ng alohida dastur yaratildi. Dasturda nizom talablarini to'liq qamrab olingan xolda barcha kamchiliklar barataraf etildi.

Dasturda har bir mas'ul xodim o'zining elektron klyuchi orqali dasturga kirishi va undagi imkoniyatlardan foydalanib, zarur xujjatlarni dasturga yuklashi va moliya vazirligiga yuborishi mumkin. Soliq to'lovchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 741-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 274-moddasiga o'zgartirish kiritildi va soliq to'lovchilarga nafaqat ariza taqdim etish yo'li bilan balki soliq hisobotini taqdim etishda soliq organlarini xabardor qilgan xolda ham soliqning salbiy summasi o'rnini qoplash (qaytarish) uchun murojaat qilish huquqiga ega bo'ldilar.

Bundan tashqari, soliq summasi soliq to'lovchiga soliq organining soliq summasi o'rnini qoplash to'g'risidagi qarori asosida soliq summasini qoplash (qaytarish) to'g'risidagi ariza tushgan sanadan e'tiboran 2022-yilga yakuniga qadar oltmish kundan, tezlashtirilgan tartibda esa yetti kundan kechiktirmay qaytarilishi lozim edi. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 812-sonli Qonuni qabul qilinishi bilan endilikda ushbu muddat o'ttiz kundan oshmasligi zarurligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi joriy etildi. Kiritilayotgan o'zgartirishlardan ko'zlangan asosiy maqsad soliq to'lovchilarga imkon qadar yengilliklar yaratish, soliq to'lovchilarning faoliyatiga ta'sirni kamaytirish maqsadida qoplanishi asosli bo'lgan mablag'larni qisqa muddatlarda ko'rib chiqish va soliq to'lovchi bilan soliq organi xodimlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlarni imkon qadar kamaytirish, buning o'rniga raqamlashtirish ishlarini jadallashtirib



telekommunikasiya vositalari orqali barcha ishlarni xal qilish va eksportyor korxonalarni yanada qo'llab quvvatlash ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr da "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni qabul qilinishida ham «Yashirin iqtisodiyot»ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish, markirovkalash va raqamlashtirish tizimi samarasini oshirish va kengaytirish orqali soliq ma'murchiligi tizimining samaradorligini yanada oshirishga ahamiyat berildi.

Bundan tashqari soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida biznes uchun qo'shilgan qiymat va foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlandi. Soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor-nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash vazifalari belgilab berildi. Albatta bu borada xar tomonlama fikr yuritish lozim bo'ladi. Sababi, guruch kurmaksiz bo'lmaydi. Ya'ni tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida sog'lom raqobatlashmaydigan, yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan korxonalar ham yo'q emas. Shu bois, ba'zi tartiblarni o'rgartirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Bu borada import qiluvchi va yuqori likvidli mahsulotlar qoldig'i hisobiga vujudga keladigan manfiy tafovut summalari bo'yicha taqdim etilgan arizalarni ko'rib chiqish muddatini 60 ish kuni qilib belgilash lozim. Sababi, ushbu mahsulotlarni realizatsiyasi qisqa muddatda amalga oshadi, bu esa o'z navbatida QQS qaytarib olishda manfaatni kamaytiradi. Chunki korxonada QQSni qaytarib olishdan manfaat kam. Realizatsiya qilingan mahsulotlar bo'yicha qayta to'lab berishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasi o'n birinchi qismida soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi



Vazirlap Mahkamasi qarorining² 6- bandi g-kichik bandi uchinchi xat boshida 2021-yil 1-dekabrqa qadar mavjud soliq imtiyozlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va har bir soliq imtiyozi uchun alohida soliq imtiyozi unikal kodini (ID-raqamini) berish taptibini joriy etish hamda soliq imtiyozlari kodlari to'g'risidagi axborotlarni soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetiga yetkazib berish amaliyotini joriy etish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun soliq imtiyozlarining hisobini yuritish maqsadga muvofiq. Soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish va yupitish zaruriyati nimadan kelib chiqdi.

Soliq ma'muriyatchiligida salbiy farq QQS summasining talab qilinadigan soliq majburiyatlaridan ortiq bo'lgan holatlarini anglatadi. Bunday farqlar bir necha sabablarga ko'ra paydo bo'lishi mumkin. Soliq to'lovchilar tomonidan QQS bo'yicha ortiqcha to'lovlarni amalga oshirishi. Eksport qiluvchi korxonalarga QQS qaytarilishi jarayonidagi kechikishlar. Soliq imtiyozlari korxonalar va tadbirkorlar uchun moliyaviy yengilliklar yaratishga qaratilgan mexanizmdir. QQS bo'yicha salbiy farqni qoplash uchun QQSdan to'liq ozod qilish ya'ni QQS stavkasi pasaytirilgan yoki imtiyozli tariflarni qo'llash va soliq kreditlari yoki kompensatsiya mexanizmlarini qo'llashdan iborat.

Qo'shilgan qiymat solig'idan to'liq ozod qilishni tahlil qiladigan bo'lsak, bu soliq to'lovchilarni mazkur to'lovdan butunlay xalos etish jarayoni bo'lib, u iqtisodiyotda va biznes muhitida muhim ahamiyatga ega. Bu siyosat, odatda, ayrim korxonalar, mahsulotlar yoki xizmatlar uchun joriy etiladi va turli iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydi. Ushbu tahlilda QQSdan to'liq ozod qilishning asosiy sabablari, afzalliklari, kamchiliklari va uning iqtisodiyotga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beriladi. QQSdan to'liq ozod qilish sabablarini o'rganganimizda QQSdan ozod qilish odatda hukumatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga qaratilgan. Ba'zi eng muhim sabablar ijtimoiy himoya va aholini qo'llab-quvvatlash – asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, tibbiy

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 595-son qarori.



xizmatlar va dori-darmonlar QQSdan ozod qilinsa, aholining kam daromadli qatlamlari uchun mahsulotlar arzonroq bo'ladi. Eksportni rag'batlantirish – ko'pgina davlatlarda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar QQSdan ozod qilinadi. Bu milliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Strategik sohalarni qo'llab-quvvatlash – qishloq xo'jaligi, tibbiyot, ta'lim, madaniyat kabi sohalarda soliq yukini kamaytirish uchun ushbu mexanizm qo'llaniladi. Investitsiyalarni jalb qilish – yangi korxonalar uchun QQSdan to'liq ozod qilish investitsiyalarni rag'batlantirishi va yangi ish o'rinlarini yaratishga imkon berishi mumkin.

QQSdan to'liq ozod qilish iqtisodiyot va tadbirkorlik muhiti uchun qator ijobiy ta'sirlarga ega ya'ni iste'molchilar uchun foyda – mahsulot va xizmatlar arzonlashadi, bu esa aholi xarid qobiliyatini oshirishga yordam beradi, biznes yuklamasini kamaytirish – ayrim korxonalar uchun QQS to'lash majburiyati bekor qilinishi ularning operatsion xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi, qora bozorni qisqartirish – ba'zi sohalarda soliq yukini kamaytirish orqali noqonuniy faoliyatni rasmiylashtirishga turtki berilishi mumkin, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish – ayrim sohalarda QQSni bekor qilish iqtisodiyotning tezroq o'sishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sish va raqobatni rag'batlantirishda QQS stavkasi pastligi yoki imtiyozlarning amalga oshirilishi sohalarni raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Misol uchun, kichik va o'rta bizneslar uchun soliq stavkalarini pasaytirish ularning moliyaviy yuklamasini kamaytiradi va ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Kam daromadli aholini qo'llab-quvvatlashda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar va tibbiy xizmatlar uchun QQS stavkasi pasaytirilishi aholining kam daromadli qatlamlari uchun ma'muriy yengilliklarni yaratadi. Bu ularning hayot darajasini oshirishga, bir necha muhim xizmatlar va tovarlarga dasturli bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

QQS ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha 3 ta asosiy yo'nalish:



AI asosida "Soliq uzilishlari"ni (tax gap) avtomatik aniqlash: Inson omilisiz, tizim orqali shubhali zanjirlarni real vaqt rejimida blokirovka qilish.

To'liq raqamli kuzatuv (Traceability): Tovarning ishlab chiqarishdan tortib iste'molchigacha bo'lgan harakatini E-faktura va onlayn-kassa ma'lumotlari bilan 100% integratsiya qilish.

"Ishonchli to'lovchi" reytingi: Halol tadbirkorlar uchun QQSni qaytarish va hisobot topshirishni maksimal soddalashtirish, "qora ro'yxat"dagilar bilan esa qat'iy avtomatlashgan nazoratni qo'llash.

ADABIYOTLAR/LITERATURA/REFERENCE:

1. Sabine Freizer tomonidan "O'zbekistonda soliq ma'muriyati islohoti va fiskal nazorat":<https://documents1.worldbank.org/curated/en/542691624154434845/text/Uzbekistan-Tax-Administration-Reform-Project.txt>
2. Tigran Poghosyan va Evgeniya Kolomak (2013) https://www.files.ethz.ch/isn/139068/643172_sa231.pdf.
3. Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. (2016) Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government. // Procedia Economics and Finance. Volume 36,. Pages 336-344.
4. Turdaliyev Eldor Sho`xratjon o'g'li "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish masalalari" I.f.f.d (PhD) dissertasiyasi avtoreferati T.: 2026. -11 6.

